

## ONLAYN MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING ILMIY-USLUBIY MASALALARI

*Shahlo Akmalovna Alimbayeva*

*Katta o‘qituvchisi, Toshkent davlat texnik universiteti, O‘zbekistan*

*Malika Mexriddinovna Xusamiddinova*

*Katta o‘qituvchisi, Toshkent davlat texnik universiteti, O‘zbekistan*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada onlayn mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy-uslubiy jihatlari yoritib berilgan. Kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida onlayn mashg‘ulotlarining pedagogik-psixologik xususiyatlari, tinglovchilarni faollashtirish, o‘quv munozaralarini tashkil qilishning uslubiy muammolari tahlil qilingan, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** onlayn mashg‘ulotlar, o‘quv munozarasi, mashg‘ulot ni modellashtirish, chaqiruv, mazmuni tushunib yetish, refleksiya.

**Kirish qismi:** Butun dunyoda bo‘lgani kabi, Respublikamizda ham zamonaviy ta’lim sharoitida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida faoliyatni masofadan amalga oshirish ishlarini samarali tashkil qilish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu esa masofadan mashg‘ulotlar va boshqa turdagi mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasining ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Amaliy faoliyat tajribamiz natijasida ko‘rsatishimiz mumkinki, onlayn mashg‘ulot larni tashkil qilganda mashg‘ulotning kognitiv, emotsional-motivatsion va operatsion jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Ushbu maqolada onlayn mashg‘ulotlarini tashkil qilishning kognitiv jihatlarini yoritishni maqsad qilib qo‘ydik.

Mashg‘ulotning kognitiv jihati, ya’ni tinglovchilarning ustoz tomonidan taqdim qilinadigan ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv axborotini to‘laqoni o‘zlashtirishlari uchun barcha tashkiliy, o‘quv-didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Xuddi an’anaviy ta’limdagi kabi, masofaviy didaktik jarayonlarda ham o‘quv axborotlarini o‘zlashtirishda mashg‘ulot matnlari ta’lim oluvchilar, tinglovchilar uchun asosiy bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi. mashg‘ulot mashg‘ulotlarida tinglovchilar faolligini ta’minlash juda muhim. Chunki o‘quv axborotlariga nisbatan tinglovchilarda shaxsiy munosabatni uyg‘otishga e’tibor qaratiladi va bunda ilmiy-nazariy hamda amaliy ma’lumotlarni ular o‘zlaridan o‘tkazishlari kerak bo‘ladiki, bu, o‘z navbatida, bilimlarning mustahkam egallanishiga xizmat qiladi. Buning uchun mashg‘ulot mashg‘ulotlarida didaktik jarayon ishtirokchilarini shunchaki tinglovchi holatidan chiqarish, o‘quv axborotida keltirilgan konsepsiyalar, ilmiy yondashuvlarga

nisbatan o‘z nuqtayi nazarlarini shakllantira olishlari, boshqaruv faoliyatlarida to‘plagan tajribalari bilan uyg‘unlashtirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda onlayn ma‘uza mashg‘ulotini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. mashg‘ulot da keltirilgan o‘quv axborotlari tinglovchilarga quyidagi chaqiruv, mazmuni tushunib yetish, refleksiya bosqichlarda taqdim qilinishi nazarda tutiladi.

**1-bosqich.** Mashg‘ulot oldi yoki chaqiruv bosqichi. Buning uchun internet tarmog‘i imkoniyalaridan foydalanib, umumiy guruh yaratishga e‘tibor qaratiladi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv axboroti kompleksi tinglovchilarga oldindan tanishish va tahlil qilish uchun taqdim qilinadi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad tinglovchilar tomonidan mashg‘ulot da keltiriladigan o‘quv axborotini keng va chuqur o‘zlashtirilishiga erishish, ularda shaxsiy nuqtayi nazarni shakllantirish hamda mushohadaga undash hisoblanadi.

Tinglovchilar mavzu bilan bog‘liq ma‘lumotlarni rahbarlik tajribalariga tayangan holda, xotiralarida tiklaydilar, ularning ijtimoiy dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyatlilik tomonlari haqida fikr yuritadilar. Chaqiruv bosqichining yana bir muhimligi shundaki, tinglovchilar o‘z bilimlari “zaxirasi” va imkoniyatlarini sinab ko‘radilar. Ular nima haqida bilishlari va yana qanday ma‘lumotlar bilan o‘z intellektlarini, rahbarlik kompetensiyalarini yana-da oshirishlari hamda kasbiy ma‘noda shaxsiy shakllanish yo‘lidagi kamchiliklarini hal qilib olishlari lozimligini anglaydilar. O‘quv axborotlarining mavhumlik darajasi yo‘qoladi.

Bu bosqichda o‘qituvchi tinglovchilarga quyidagi savollar bidan murojaat qilishi mumkin: “Ushbu jarayonlar haqida siz qanday fikrdasiz?”, “Buning muhimligi nimada deb o‘ylaysiz?”, “Bu muammo bilan siz oldin tanish bo‘lganmisiz va qanday ma‘lumotlarga egasiz?” Tinglovchilar bu bosqichda o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha nimalarni bilishlari, qanday ma‘lumotlarga ega ekanliklari, masalaning aniq vaziyatlarda ilmiy-amaliy va ijtimoiy ahamiyati nimada ekanligi, shuningdek, yana nimalar haqida bilib olishlari muhim ekanligi to‘g‘risida o‘ylab ko‘radilar. Tinglovchilar chaqiruv bosqichida faol fikrlashlari natijasida ta‘limiy jarayonda ongli ishtirok qilishga tayyor bo‘ladilar. Ularda mashg‘ulotning dastlabki daqiqalaridanoq yangi o‘quv axborotiga nisbatan shaxsiy ehtiyoj shakllanadi.<sup>1</sup>

**2-bosqich.** Keyingi bosqich mazmuni tushunib yetish deb ataladi. Ushbu bosqichni tashkil qilishdan maqsad tinglovchilarni faollashtirish, mashg‘ulot da keltirilgan o‘quv axborotining barchaga aniq va tushunarli bo‘lishini ta‘minlashdan iborat. mashg‘ulot mazmunini tinglovchi nafaqat

tushunishi, balki unda bayon qilingan turli ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariy-amaliy ma‘lumotlarni mantiqiy tahlil qilishi, ularning asoslilik jihatlarini izlashi, o‘z munosabatini shakllantirishi, masalaning tushunarsiz yoki asossiz deb hisoblagan tomonlariga nisbatan aniq savollarni qo‘ya bilishi lozim.

O‘qituvchi 15–20 daqiqa davomida mashg‘ulot o‘qiydi, mazmunni tahlil qilishda yordam beradi. Tinglovchilar o‘qituvchiga savollar bilan murojaat qilib boradilar. Mazmunni tushunib yetish bosqichida tinglovchilar yangi axborotlar bilan tanishadilar. Bu bosqichda o‘qituvchining vazifasi tinglovchilarning yangi bilimlarni tushunib yetishlari uchun

imkoniyat yaratish, chaqiruv bosqichida yuzaga kelgan qiziqishlarini yana-da oshirishdan iborat. O‘qituvchi tinglovchilarning e‘tiborini har bir fikr, nuqtayi nazarga qaratadi, masalaning muammolilik jihatlarini faol muloqot davomida birgalikda tahlil qiladi. mashg‘ulot chi tinglovchilarga muammoli savollar bilan murojaat qilib boradi. O‘qituvchi munozara davomida tinglovchilar bildirgan fikrlarni mashg‘ulot maqsadlaridan kelib chiqib, ilmiy-nazariy va amaliy asoslaydi, yangi ma‘lumotlarni bayon qiladi, noaniq yoki tushunarsiz bo‘lib hisoblangan axborotlarni aniq va ravshan tahlil qilib beradi, ularni mushohada qilishga undaydi.<sup>2</sup>

Keyingi bosqich refleksiya deb nomlanadi. Refleksiya bosqichida tinglovchilar mashg‘ulot davomida egallagan bilimlari, to‘plagan taassurotlari, yangi ma‘lumotlar to‘g‘risida amaliy tajribalariga tayangan holda fikrlaydilar. Ushbu bosqichda o‘qituvchi mashg‘ulot da bayon qilingan nuqtayi nazarlarga nisbatan tinglovchilar tomonidan shaxsiy fikr va amaliy tajriba shakllanishi uchun imkoniyat yaratadi. Refleksiya davrida tinglovchilar yangi axborotlar xususida fikrlaydilar, o‘z tushunchalarini turli nuqtayi nazarlar, boshqaruvchilik tajribalari bilan taqqoslagan holda kengaytiradilar. Bunda ular yangi bilimlarni o‘zini qilib oladilar.

- tinglovchilarda mashg‘ulot da keltirilgan o‘quv axborotiga nisbatan tanqidiy fikr yuzaga keladi, masalalar talqinida ular shaxsiy nuqtayi nazarlarini bildiradilar, muammoning murakkablik jihatlarini aniqlaydilar;

- qizg‘in munozaralarning yuzaga kelishini uchun muayyan vaziyatlar yaratiladi;

- tinglovchilarga boshqa rahbarlar tomonidan bildirilgan turli fikr-mulohazalarni eshitib, o‘ylab ko‘rish imkoniyati beriladi, munozarada qatnashishlari qo‘llab-quvvatlanadi; davlat fuqarolik xizmatchilarida yangi tajriba, innovatsiyalarga ochiqlik, tizimli va mantiqiy fikrlash, kommunikativlik, rahbarlik faoliyatlarini maqsadli, oqilona tashkil qilish kabi yetakchi kompetensiyalarning shakllanishiga erishiladi.

Bugungi kunda masofaviy mashg‘ulot mashg‘ulotlarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish ta‘lim tizimining barcha pedagog xodimlari oldida turgan asosiy masalalardan biridir. mashg‘ulot mashg‘ulotlarida muammoli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash orqali faoliyatda kutilgan natijalarga erishish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Фарберман Б.Л. Илғор таълим технологиялари. Тошкент, “Молия”, 2003.
2. Исмаилова Ш.К. Таълим жараёнида инновацион педагогик технологияларни қўллаш шартлари. Урганч, УрДУ, 2015. бет 82.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб, “Питер”, 2006.
4. Malika, Khusamiddinova & Shakhlo, Alimbayeva & Sadikova, Mahbuba. (2021). THE ROLE OF MEDIA TECHNOLOGIES IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENT'S. *International Journal of Innovative Research and Development*. 6. 133-135.
5. KHUSAMIDDINOVA MALIKA MEKHRIDDINOVNA, & NURMATOV YORQIN IRKINOVICH. (2021). CREATING ALTERNATIVES IN TRANSLATIONS. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 367–371. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/183>
6. Sobirovna, V. K. . (2024). Inductive Way of Teaching Vocabulary Using Collocations. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, (27), 35-38. Retrieved from <https://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/1089>
7. Shahlo Akmalovna Alimbayeva, & Malika Mekhriddinovna Khusamiddinova. (2024). Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions as a Pedagogical Problem. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 26, 31-34. Retrieved from <https://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/1047>